



Boshlang'ich Sinflarda Ona-Tili Va Savodxonlik Darslarida Didaktiki Manbalardan Foydalanishning Ahamiyati

Muratbayeva Suray Ayitbay qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishining
1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda oquv savodxonligi darslarida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Ona – tili va savodxonlik, didaktika, boshlang'ich sinf, nutq, madaniyat, o'quvchilar, o'stirish.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritish ,o'rta ta'lim muassasalari, xususan bo'shlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'lim tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilab ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining – Ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlanib, u milliy va umummbashariy ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy- axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday daydi:

"Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'ngi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonaviy va jamiyatimizning ilg'or vakillari bo'lishlari kerak". Ma'lumki, Ona – tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea – hodisalarni kuzatish, aniqlash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona – tili va o'qish savodxonligi ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaratiladi. Shu bois ham , darsni tashkil qilishda unga integrasion va innovatsion zamonaviy yondashish davr talabi bo'lib qolmoqda. Zero, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmunini , mohiyatini , ularni darsga qanday tadbiq etish usullarini puxta bilmog'i darkor. Xususan, boshlang'ich sinflarda ona – tili va o'qish fanlarini o'qitish bugunki kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv – uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutaffikirlar ijodida ham markaziy, o'rin egallagan.

Ma'lumki, inson hayotida nutq va taffakkurning o'rni va roli qadimdan ko'pchilikni qiziqtirib keladi. Farobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan Farobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi:

–... so‘zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq – atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan – bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zarali va foydali narsani, lazziyatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

Ta‘lim texnologiyalari pedagogiki faoliyatning ma‘lum sohasida qamrab oladi. Didaktiki jarayon bosqichlarini muayyan ketma- ketlik qurish o‘quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadlarda mos holda tanlangan o‘qitish metodlari yordamida tashkil etish demaktir. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifati samaradorligini oshirish zamonaviy yondashuv – o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra, ma‘lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo‘ladi. Ularning samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta‘minlash barcha ta‘lim muassasalarining oldiga qo‘yilayotgan maqsadga ne chog‘lik erishilayotganini ko‘zda tutish kerak. Yoxud o‘qitish metodlari bevosita ta‘lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyadir. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti o‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish yo‘llari va vositalari, ona- tilini egallash ya‘ni nutqni, o‘qish va yo‘zishni grammatika va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risidagi ilmdir.

Boshlang‘ich sinflarda ona – tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Savod o‘rgatish metodikasi**, ya‘ni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish.
2. **O‘qish metodikasi.** Boshlang‘ich sinflarda o‘qish predmetining vazifasi bolalarni tez (me‘yorida), to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.
3. **Grammatika, fonetika , imlo va so‘z yasalishini o‘rganish metodikasi.** Bu bo‘lim elementar to‘g‘ri yozuvga va husnixatga o‘rgatishni nazarda tutadi.
4. **Nutq o‘stirish metodikasi.** Bu bo‘lim boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o‘quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruri narsa hodisalar haqida o‘ylab rejali nutq tuzish zarurligini ham tushina boshlaydilar.

Ona – tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersada, Oquvchilar lug‘atini boyitish, nutqini o‘stirish, tilini amaliy egallashlariga zamin, asos bo‘la olmaydi. Mashqlarning bir tizimi sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma‘lumot berishga mo‘jallangan terma to‘qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz , mashqlarning bog‘lanishli nutqni egallashga ijobiy ta‘siri kam. Oddiy so‘zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o‘quvchi nutqini boyitish uchun manba bo‘la olmaydi. O‘quvchilarning o‘zbek adabiy tlini egallashlari mashq matnlarining badiiyililigiga, til komponentlariga boyligiga bog‘liq. Darslarni didaktik o‘yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari vaadaptatsiya hosil qilishlariga ham ko‘mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o‘tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o‘yinlardan foydalanib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. G. Muhiddinov O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi. 2015. 80-b
2. O. Roziqov “Ona tili didaktikasi.”
3. N. Qo‘chqorova “Boshlang‘ich sinflarda innavatsion metodlarning ahamiyati.
4. WWW.ZIYO.COM